O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BUXGALTERIYA HISOBI”KAFEDRASI

“BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA JADAL O’TKZISHNING NAZARIY, TASHKILIY METODOLOGIK MASALALARI”

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLAR TO’PLAMI

(2025-yil 13-mart)

Samarqanda- 2025 y.

UO‘K: 657.5
B 97
KBK: 65.052

“Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga jadal o‘tkazishning nazariy, tashkiliy metodologik asoslari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2025-yil 13-mart. Samarqand, SamISI 2025. 385 - bet

To‘plovchi nashrga tayyorlovchi:
S.N.Tashnazarov - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nashr uchun mas’ullar:

1. **K.B.Urazov-** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
2. **A.N.Xoliqulov-** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
3. **U.A.Shirinov-** PhD, dotsent.

Sahifalovchi: Ruxsora Pardaboyeva.

Ushbu an’anaviy ilmiy-amaliy konferentsiya materiallarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida korxonalarda aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlarni tan olish va baholash hamda moliyaviy hisobot masalalari; Innovatsion iqtisodiyot sharoitida auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va o‘tkazishning tashkiliy dastaklari hamda metodologik masalalari; Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish hamda iqtisodiy tahlil, marketing va menejmentni takomillashtirish; hamda innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliya, sug‘urta, soliqqa tortish, investitsiya va bank sohalarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va rivojlantirish masalalari bo’yicha maqolalar va tezislar o’rin olgan.

Oliy ta’lim professor-o’qituvchilari, talabalar, magistrlar, tayanch doktorantlar, doktoranturada tahsil oluvchilar, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo’ljallangan.

Ushbu xalqaro konferensiyada keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro stsndartlarga jadal o’tkazishda hamda yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni

YAHYOYEV TO’LQIN ISMATULLA O’G’LI	Moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra moliyaviy hisobotni ikkinchi shaklini shakllantirishni alohida xususiyatlari.	112
ТОҲИР ТОЛМАС ЎҒЛИ САТТОРОВ	Тайёр маҳсулот ишлаб чиқарувчи корхоналарда сотиш жараёни бухгалтерия ҳисобида молиялаштиришнинг салмоқли компоненти ва қайтариш ҳуқуқи	115
ТОҲИР ТОЛМАС ЎҒЛИ САТТОРОВ	Korxonalarda gilam ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyatlari	130
ЭШОНҚУЛОВ АКМАЛ QUDRATOVICH	Пул маблағлари тушунчаси бухгалтерия ҳисоби объекти сифатида тавсифи	135
A.Q. ESHONQULOV SADRIDDINOVA M. A.	Boshqaruv hisobida variable costing, absortion costing va standart costingning qo‘llanishi	141
НУРНИЁЗОВ ФЕРУЗ АБДУРАШИД ЎҒЛИ	Корхоналаргакўрсатилаётган изматлардан бири электр энергия сохасини, Ўзбекистонда вужудга келиши ва бугунги холати	145
KHUDOYNAZAROVA DILNOZA GAFUROVA	Improving the accounting of financial investments in enterprises	149
XUDAYNAZAROVA D.G. XURRAMOVA SH. .Z	Korxonalarda mehnat haqi hisobini takomillashtirish	151
ЖАРИМБЕТОВ АЖИНИЯЗ КУРБАНБАЕВИЧ	Активлар қадрсизланиши ҳисобининг хориж тажрибаси	156
GUZAL DJUMAYEVA AXTAMOVNA	Foydalanish huquqi ko’rinishidagi aktivni baholash	159
A.M.MISIROV	Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy holat to’g’risidagi hisobot tuzilishi va bhms bilan taqqoslanishi	165
Narzullayeva O.Q	Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlar asosida muvofiqlashtirishning ahamiyati	169
II SHO’BA. BOB.INNAVOTSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O’TKAZISHNING TASHKILIY DASTAKLARI HAMDA METODOLOGIK MASALALARI		
ТУЛАХОДЖАЕВА М.М.ХОДЖАЕВА М	Экологический аудит: мировой опыт и практика в узбекистане	173

Adabiyotlar:

1. Horngren, C. T., Datar, S. M. va Rajan, M. V. (2021). Xarajatlarni hisobga olish: boshqaruv e'tibori. Pearson.
2. Drury, C. (2018). Boshqaruv va xarajatlar hisobi. Cengage Learning.
3. Kaplan, R. S. va Atkinson, A. A. (1998). Kengaytirilgan boshqaruv hisobi. Pearson.
4. Blocher, E. J., Stout, D. E., Yuras, P. E. va Kokins, G. (2019). Xarajatlarni boshqarish: strategik urg'u. McGraw-Hill Education.
5. Garrison, R. H., Noreen, E. V. va Brewer, P. C. (2020). Boshqaruv hisobi. McGraw-Hill Education.
6. Kuper, R. va Kaplan, R. S. (1988). "Xarajatlarni to'g'ri o'lchash: to'g'ri qarorlar qabul qilish". Garvard Business Review.
7. Drury, C. (2004). "Menejment va xarajatlarni hisobga olish amaliyoti". Buxgalteriya hisobi va moliya jurnali.
8. Jonson, H. T. va Kaplan, R. S. (1987). "Ahamiyat yo'qolgan: boshqaruv hisobining yuksalishi va tushishi". Garvard biznes maktabi matbuoti.
9. Garrison, R. H., Noreen, E. V., Brewer, P. C. (2021). "Boshqaruv hisobi"
10. Drury, C. (2018). "Boshqaruv va xarajatlarni hisobga olish"
11. Horngren, C. T., Datar, S. M., Rajan, M. (2020). "Xarajatlarni hisobga olish: boshqaruv e'tibori"
12. Kaplan, R. S. va Atkinson, A. A. (1998). "Kengaytirilgan boshqaruv hisobi"
13. Xilton, R. V., Maher, M. V. va Selto, F. H. (2019). "Xarajatlarni boshqarish: biznes qarorlari strategiyasi"
14. Blocher, E., Stout, D., Yura, P. (2019). "Xarajatlarni boshqarish: strategik urg'u"
15. Norin, E. (2017). «Boshqaruv hisobidagi xarajatlarni shakllantirish usullarining qiyosiy tahlili».
16. Drury, C. (2020). "Xarajatlar va boshqaruv hisobi: kirish"

FOYDALANISH HUQUQI KO'RINISHIDAGI AKTIVNI BAHOLASH

Guzal Djumayeva Axtamovna
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti,
'Buxgalteriya hisobi' kafedrasi assistenti
guzal_axtamovna@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv (FHKA)ning tan olinishi, ularning boshlang'ich qiymati va davomiy baholanishi xalqaro standartlarga asoslanib o'rganilgan.

Kalit so'zlar. ijara ob'yekti, foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv (FHKA), ijaraning boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan amortizatsiya, ijara muddati.

Abstract. This article examines the recognition of right-of-use assets (RUAs), their initial cost and ongoing measurement based on international standards.

Keywords: leased asset, right-of-use asset (RUAs), initial cost of lease, accumulated depreciation, lease term.

Respublikamizda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga jadal garmonizatsiyasi sharoitida aktivlarni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Korxonalarda ijara hisobini xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqib tubdan yangi tartiblar asosida yuritishni taqozo etmoqda. 16-son MHXSga asosan ijaraga oluvchi korxona ijara boshlanishida foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv(FHKA)ni va ijara bo'yicha majburiyatni tan olishi lozim.

Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv(FHKA) bu- ijarachining ijara muddati davomida tayanch aktivdan foydalanish huquqidan iborat bo'lgan aktiv.

FHKAni tan olish uchun bizning fikrimizcha bir qancha asoslar bajarilishi kerak:

Birinchidan, ijara muddati uzoq muddatli, ya'ni kamida bir yildan ortiq bo'lishi kerak;

Ikkinchidan, ijara obyektining qiymati salmoqli bo'lishi talab etiladi. Kichik qiymatdagi obyektlarni FHKA deb tan olinishi maqsadga muvofiq emas;

Uchinchidan, ob'yektning likvidatsion qiymati katta ehtimol bilan aniq baholanishi va ijarachi tomonidan to'lanishiga ishonch mavjud bo'lishi kerak.

Ijarachida (foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivni baholash) FHKA boshlang'ich qiymati bo'yicha tan olinadi. 16-son MHXSlari 24-bandiga muvofiq uning boshlang'ich qiymati quyidagi elementlardan tashkil topadi:



1-rasm. FHKA boshlang'ich qiymati bo'yicha elementlari.

16-son MHXSga asosan foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv boshlang‘ich qiymatida baholanadi. Bunda barcha uzoq muddali aktivlarni boshlang‘ich qiymatda hisobga olish qoidasi amal qiladi. Unga muvofiq FHKA jamg‘arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishdan zarar chegirib tashlangandan keyingi boshlang‘ich qiymati bo‘yicha hisobga olinadi. Buni quyidagi formula orqali ifodalashimiz mumkin bo‘ladi.

$$FHKA_1 = FHKA_0 - JA - JQZ$$

FHKA-ijaraning boshlang’ich qiymati;
JA-jamg’arilgan amortizatsiya;
JQZ-jamg’arilgan qadrsizlanishdan zarar.

16-son MHXSlari talablariga muvofiq agar FHKA ijara muddati tugagandan keyin egalik qilish huquqi ijarachiga o‘tsa u holda amortizatsiya aktivning xizmat qilish muddati davomida hisoblanadi. Boshqa holatlarda amortizatsiya hisoblash uchun aktivning xizmat qilish muddati yoki ijara muddatidan vaysi biri qisqa bo‘lsa ushbu muddat olinadi (1-rasm).



2-rasm. Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarga amortizatsiya hisoblash (agarda ijara muddatining oxirida mulk ijarachiga o‘tishidan tashqari boshqa holatlarda)

Ijara bo‘yicha majburiyatlar, foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlar hamda foiz bo‘yicha xarajatlar, amortizatsiya xarajatlarini moliyaviy hisobotda aks ettrishga doir uslubiy masalalar bilan tanishib chiqaylik.

“Naturel Zamin” MCHJ bo‘yicha foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv ma’lumotlaridan foydalanamiz.

1-jadval

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivning boshlang‘ich qimatini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblar

Xalqaro standartlarga muvofiq FHKAning boshlang‘ich qiymati elementlari	**Summa**
1. Ijara bo‘yicha majburiyatlarning boshlang‘ich bahosi miqdorida	298 844 988
2. Ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to‘lovlari	-
3. Har qanday boshlang‘ich to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar	32 500 000
4. Ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq bazovoy aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlar	-
Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarning boshlang‘ich qiymati (298 844 988 + 32 500 000)	**331 344 988**

“Naturel Zamin” MCHJ bo‘yicha 1-jadvalda keltirilgan foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivning boshlang‘ich qiymati 331 344 988 so‘mni tashkil etgan. Burg‘ulash mashinasining xizmat qilish muddati 10 yil. Ijara muddati uch yil. Ijara 2023 yil 1 yanvardan boshlanib, 2025 yil 31 dekabrda yakunlanadi. Ijara muddati tugagandan keyin burg‘ulash mashinasi Naturel Zamin MCHJ egaligiga o‘tmaydi. Mashina to‘liq xizmat qilish muddati davomida ijaraga olinmaganligi bois likvidatsion (tugatish) qiymati belgilanmagan. Ijara to‘lovlari yilning oxirida amalga oshiriladi. Hisob siyosatiga muvofiq, ushbu FHKAga nisbatan amortizatsiya bir tekisda taqsimlash metodi asosida hisoblash ko‘zda tutilgan. U holda FHKAning yillik amortizatsiya summasi:

$FHKA_{yas} = FHKA_0 / 3 = 331\ 344\ 988 /3 = 110\ 448\ 329$ so‘m

2023 yili FHKAga hisoblangan amortizatsiya summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.Ushbu burg‘ulash mashinasi qurilish-montaj ishlarini bajarishda qatnashganligi bois unga hisoblangan amortizatsiya xarajatlari ustama ishlab chiqarish xarajati hisoblanib, tannarxi obyektiga ma’lum mezonlar asosida taqsimlanadi.

D-t 2510 “Ustama ishlab chiqarish xarajatlari”.....110 448 329 so‘m

K-t 0299 “Foydalanish huquqi ko‘rinishdagi aktivning eskirishi”…110 448 329

Asos: FHKA ijara muddati 3 yil ijara muddati davomida amortizatsiya bir tekisda taqimlash usulida amalga oshirilgan. Yillik amortizatsiya summasi 331 344 988 /3 = 110 448 329 so‘mni tashkil etgan.

Yuqoridagi jarayonlarni Naturel Zamin MCHJ moliyaviy hisobotida aks ettiramiz.

Balans moddalari **Баланс моддалари**	**Satr**	**2023** **yil 31 dekabr**	**2024 yil 31 dekabr**	**2025 yil 31 dekabr**
Uzoq muddatli aktivlar: **Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv**				
31.12.2023 holatida (331 344 988 – 110 448 329)		220 896 659		
31.12.2024 holatida (220 896 659 – 110 448 329)			110 448 330	
31.12.2025 holatida (110 448 330 – 110 448 330)				0
Uzoq muddatli majburiyatlar 31.12.2023 holatida (298 844 988 + 41 838 298-120 000 000)		220 683 286		
Qisqa muddatli majburiyat: 31.12.2023 holatda		120 000 000		
Uzoq muddatli majburiyat: 31.12.2024 yil holatida (220 683 286 + 30 895 660 – 120 000 000)			131 578 946	
Qisqa muddatli majburiyat			150 000 000	
Uzoq muddatli majburiyat: 31.12.2025 yil holatida (131 578 946 + 18 421 054 – 150 000 000)				0
Qisqa muddatli majburiyat				0

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarning boshlang‘ich qiymatini xalqaro standartlarga asosan ijara bo‘yicha majburiyatlarning boshlang‘ich bahosi miqdorida, ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to‘lovlari har qanday boshlang‘ich to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar, ijarachi tomonidan ijara shartlariga

muvofiq tayanch aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobida aks ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, O‘RQ-404-son. https://lex.uz/acts/2931253.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida” qonuni. 19.11.1991yil, 427-XII-SON

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori. 2020 yil 24 fevral, PQ-4611-son

4. 16-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti “Ijara”

5. 6-son BHMS “Ijara hisobi”

6 Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 b.

7 Urazov K.B. Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2020, 558 b.

8. I.Ahmadxonovning “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo’yicha qo’llanmasi” https://t.me/auditor_team

9. С. Ташназаров. Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1 дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023 - 438 бет.

10. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Монография. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. Globe Edit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050 https://www.morebooks.shop/bookprice_offer_

Internet saytlari:

https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijara

https://globalhalal.uz/blog/datahub/ijara/?script=lat

https://lex.uz/acts/-112328

https://lex.uz/ru/docs/-85259